

I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) 24 079 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 23 128 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 96,1 foizni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (22,6 foiz), Qiziltepa (12,9 foiz), Karmana (15,8 foiz) va Xatirchi (12,5 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil 1-oktabr holatiga)

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	24 079	100,0	23 128	100,0
Navoiy sh.	5 670	23,5	5 227	22,6
Zarafshon sh.	1 693	7,0	1 625	7,0
G'ozg'on sh.	215	0,9	213	0,9
Konimex	962	4,0	947	4,1
Qiziltepa	3 075	12,8	2 984	12,9
Navbahor	2 450	10,2	2 343	10,1
Karmana	3 769	15,7	3 651	15,8
Nurota	1 636	6,8	1 616	7,0
Tomdi	584	2,4	559	2,4
Uchquduq	1 103	4,6	1 094	4,7
Xatirchi	2 922	12,1	2 869	12,5

Ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning hududlar bo'yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,5 foiz), sanoat (16,1 foiz), qurilish (7,4 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (11,2 foiz) sohalariga to'g'ri keldi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil 1-oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	24 079	100,0	23 128	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 703	11,2	2 615	11,3
sanoat	3 886	16,1	3 713	16,1
qurilish	1 793	7,4	1 705	7,4
savdo	8 312	34,5	8 039	34,8
tashish va saqlash	727	3,0	693	3,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 518	6,3	1 430	6,2
axborot va aloqa	260	1,1	245	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	324	1,3	320	1,4
boshqa turlari	4 556	19,1	4 368	18,7

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(2021-yil 1-oktabr holatiga)



11,3 %

**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi**

16,1 %



Sanoat

7,4 %



Qurilish

34,8 %



Savdo

3,0 %



Tashish va saqlash

6,2 %



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar**

1,1 %



Axborot va aloqa

1,4 %



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish**


18,7 %



Boshqa turlar


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 96,1 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,9 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




2021-yil 1-oktabr holatiga 20 935 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 707 ta, oilaviy korxonalar – 4 016 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10 955 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 19 ta, unitar korxonalar – 57 tani va 181 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021-yil yanvar-sentabr oylarida jami 4 215 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2020-yilning shu davriga nisbatan 118,3 foizga oshgan, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (733 ta), Karmana (535 ta), Navbahor (453 ta), Xatirchi (547 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kam esa Tomdi (181 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (112 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 37,9 foiz, sanoatda 22,0 foiz, qurilishda 5,1 foiz va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 12,1 foizni tashkil etdi.

2021-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni 20 849 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 18,0 foizga oshdi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 622 tasi (jami sub’ektlarning 22,2 foizi) Navoiy shahri, 3 384 tasi (16,2 foizi) Karmana, 2 752 tasi (13,2 foizi) Qiziltepa, 2 569 tasi (12,3 foizi) Xatirchi hamda 2 156 tasi (10,3 foizi) Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 479 tasi (2,3 foizi) Tomdi, 813 tasi (3,9 foizi) Konimex, 979 tasi (4,7 foizi) Uchquduq tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(2021-yil 1-oktabr holatiga)

	<i>Jami</i>	<i>Faoliyat yuritayotgan</i>	<i>Faoliyat yuritmayotgan</i>	<i>2021-yil yanvar-sentabr oylarida yangidan tashkil etilgan</i>	<i>2021-yil yanvar-sentabr oylarida faoliyati tugatilgan</i>	<i>1000 kishiga to'g'ri keladigan KB sub'ektlari</i>
Jami	21 743	20 849	894	4 109	1 422	23,6
Navoiy sh.	5 026	4 622	404	680	175	31,0
Zarafshon sh.	1 540	1 476	64	333	289	17,3
G'ozg'on sh.	190	188	2	105	2	21,5
Karmana	3 500	3 384	116	521	109	28,7
Konimex	828	813	15	213	70	27,8
Qiziltepa	2 838	2 752	86	482	102	21,8
Navbahor	2 260	2 156	104	449	63	23,3
Nurota	1 451	1 431	20	211	65	21,2
Tomdi	503	479	24	174	25	53,0
Uchquduq	988	979	9	401	250	28,8
Xatirchi	2 619	2 569	50	540	272	16,5


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha soni

	<i>2020- yil 1- oktabr holatiga</i>		<i>2021- yil 1- oktabr holatiga</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	17 670	100,0	20 849	100,0
Navoiy sh.	3 889	22,0	4 622	22,2
Zarafshon sh.	1 451	8,2	1 476	7,1
G'ozg'on sh.	-	-	188	0,9
Konimex	651	3,7	813	3,9
Qiziltepa	2 346	13,3	2 752	13,2

	2020- yil 1- oktabr holatiga		2021- yil 1- oktabr holatiga	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Navbahor	1 789	10,1	2 156	10,3
Karmana	2 872	16,3	3 384	16,2
Nurota	1 318	7,5	1 431	6,9
Tomdi	323	1,8	479	2,3
Uchquduq	849	4,8	979	4,7
Xatirchi	2 182	12,3	2 569	12,3

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 20 849 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining 8 024 tasi (38,5 foizi) – savdoda, 3 684 tasi (17,7 foizi) - sanoatda, 2 581 tasi (12,4 foizi) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 695 tasi (8,1 foizi) - qurilishda, 1 427 tasi (6,8 foizi) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 685 tasi (3,3 foizi) - tashish va saqlashda, 251 tasi (1,2 foizi) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 239 tasi (1,1 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 263 tasi (10,9 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1-oktabr holatiga ko'ra) birlikda**




2021-yil 1-oktabr holatiga Navoiy shahrida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 45,2 foizni (404 ta), Navbahor tumanida esa ro'yxatdan o'tganlarning jami sonida 11,6 foizni (104 ta), Karmana 13,0 foizni (116 ta), Uchquduq 1,0 foizni (9 ta), Konimex 1,7 foizni (15 ta), va Tomdi tumani 2,7 foizni (24 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 1 422 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan sanoat 334 ta (23,5 foizi), savdo 570 ta (40,1 foizi), qurilish 71 ta (5,0 foizi) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 120 ta (8,4 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2021-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 233 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 146 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni
(2021-yil 1-oktabr holatiga)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami	233	146	87
Navoiy sh.	71	50	21
Zarafshon sh.	16	9	7
G'ozg'on sh.	1	-	1
Konimex	7	5	2

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonona</i>	<i>Xorijiy korxonona</i>
Qiziltepa	15	8	7
Navbahor	10	8	2
Karmana	67	39	28
Nurota	23	16	7
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	8	1	7
Xatirchi	8	4	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahri 71 ta (30,5 foiz) va Karmana 67 ta (28,8 foiz) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Tomdi, Konimex tumanlarida 7 tadan (3,0 foiz), Xatirchi, Uchquduq 8 tadan (3,4 foiz) va Navbahor 10 ta (4,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi
(2021-yil 1-oktabr holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	233	100,0
Navoiy sh.	71	30,5
Zarafshon sh.	16	6,9
G'ozg'on sh.	1	0,4
Konimex	7	3,0
Qiziltepa	15	6,4
Navbahor	10	4,3
Karmana	67	28,8
Nurota	23	9,9
Tomdi	7	3,0
Uchquduq	8	3,4
Xatirchi	8	3,4

Faoliyat ko'rsatayotgan 233 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 138 tasi (59,2 foiz) sanoat, 28 tasi (12,0 foiz) savdo, 28 tasi (12,0 foiz) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 4 tasi (1,7 foiz) tashish va saqlash, 14 tasi (6,0 foiz) qurilishda, 4 tasi (1,7 foiz) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (0,4 foiz) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 foiz) sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 14 tasi (6,1 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2021-yil 1-oktabr holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	233	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	138	59,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28	12,0
qurilish	14	6,0
savdo	28	12,0
tashish va saqlash	4	1,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1,7
Axborot va aloqa	1	0,4
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,9
boshqa turlari	14	6,1

2021-yil yanvar-sentabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 14 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga kamaygan.

Bunda Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iziston, Turkiya Respublikalari - 1 tadan, Eron Islom Respublikasi - 2 ta, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta.

14 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy (3 ta) va Zarafshon (2 ta) shaharlarida, Karmana (4 ta), Nurota, Navbahor, Konimex (1 ta), Qiziltepa (2) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	14	100,0
Navoiy sh.	3	21,5
Zarafshon sh.	2	14,3
G'ozg'on sh.	-	-
Konimex	1	7,1
Qiziltepa	2	14,3
Navbahor	1	7,1
Karmana	4	28,6
Nurota	1	7,1
Tomdi	-	-
Uchquduq	-	-
Xatirchi	-	-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3 ta, qurilish va savdoda 1 tadan.

2021-yil 1-oktabr holatiga 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (4 ta), Qiziltepa va Tomdi tumani (1 tadan) hissasiga to'g'ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021-yil 1-oktabr holatiga 4 140 tani tashkil etib, ulardan 4 016 tasi yoki 97,0 foizi faoliyat yuritmoqda.

2021-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4 foizga yoki 410 taga ko'paydi.

